

# Besh\_tashabbus\_mahallada



## Besh\_tashabbus\_mahallada

Xabaringiz bor 13-dekabr kuni Termiz shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari Qahramon Qo'chqorovich Quronboev va Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullaevlar yoshlar bilan uchrashuv o'tkazgan edi. Uchrashuv davomida yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalaridan kelib chiqib "Yoshlar forumi-2021" doirasida mahallalarda yoshlar o'rtasida turli musobaqa va tanlovlar o'tkazilishi belgilangan edi. Termiz shahrida forum doirasida belgilangan musobaqa va ko'rik-tanlovlar mahallalarda yuqori saviyada tashkil etildi.

"O'zbekiston yoshlar forumi-2021" doirasida "Besh tashabbus - mahallada" shiori ostida Termiz shahar IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari sovrini uchun "ZAKOVAT" intellektual musobaqasining final bosqichi o'tkazildi.

Bugun, 18-dekabr kuni viloyat Qo'g'irchoq teatri binosida Termiz shahar 3-sektor hududida joylashgan mahallalarning har biridan finalga chiqqan jamoalar o'rtasida bilimlar bellashuvining final bosqichi bo'lib o'tdi. Qizg'in baxs va munozaralarga boy bo'lgan o'yin yakunida;

"Majnuntol" mahallasining "Omadlilar" jamoasi 1-o'rin, "Eski shahar" mahallasining "Kelajak liderlari" jamoasi 2-o'rin va "Amu sohillari" mahallasining "Everest" jamoasi 3-o'rinlarni egallashdi.

G'olib jamoalarning har bir a'zosiga 1-o'ringa kompyuter jamlanmasi, 2-o'ringa planshet va 3-o'rin uchun badiiy kitoblar jamlanmasi va diplomlar bilan taqdirlandilar.

